

SUN'iy INTELLEKTNING IMKONIYATLARI VA UNING ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Karimjanova Yokutxon Urinbaevna¹, Asqaraliyeva Durdonaxon Akbarali qizi²

¹*Toshkent amaliy fanlar universiteti "Psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi.*

²*Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi.*

¹*E-mail: ekuthonkarimjanova@gmail.com, <https://orcid.org/0000-0002-8721-5834>*

²*E-mail: Baxt5219@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola sun'iy intellektning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan. Unda sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari, ularni ta'limda qo'llash yo'llari hamda amaliy ilovalar orqali foydalanish misollari yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jalb etish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar. Zamonaviy ta'lim jarayoni, sun'iy intellekt, sun'iy intellekt ilovalari, Gamma Tome, Beautiful.ai, Microsoft Copilot, ChatGPT, Claude, Sudowrite, Jasper AI, Writesonic Rytr

Аннотация. Данная статья посвящена роли и значению искусственного интеллекта в современном образовательном процессе. В ней освещаются возможности технологий искусственного интеллекта, способы их применения в образовании, а также приводятся примеры практических инструментов. Также обосновывается, что использование искусственного интеллекта способствует повышению внимания учащихся, развитию их мышления и повышению эффективности обучения.

Ключевые слова. Современный образовательный процесс, искусственный интеллект, приложения искусственного интеллекта, Gamma, Tome, Beautiful.ai, Microsoft Copilot, ChatGPT, Claude, Sudowrite, Jasper AI, Writesonic, Rytr.

Annotation. This article is devoted to the role and importance of artificial intelligence in modern education. It highlights the capabilities of artificial intelligence technologies, ways of their application in education, and provides examples of practical tools. It also substantiates that the use of artificial intelligence helps to increase students' attention, develop their thinking skills, and improve the effectiveness of the educational process.

Keywords. Modern educational process, artificial intelligence, artificial intelligence applications, Gamma, Tome, Beautiful.ai, Microsoft Copilot, ChatGPT, Claude, Sudowrite, Jasper AI, Writesonic, Rytr.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida tubdan yangilanmoqda. Axborotkommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji natijasida an'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda masofaviy, aralash va raqamli ta'lim modellariga bo'lgan ehtiyoj keskin oshdi. Ushbu jarayonda o'quv kontentining sifati, moslashuvchanligi va tezkor ishlab chiqilishi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib bormoqda. Zamonaviy ta'lim muhitida o'quv videomateriallar bilimlarni vizual va interaktiv shaklda yetkazish imkonini beruvchi eng samarali vosita deb qaralib turgan bir vaqtda, xar hil videodarslar yaratishda, mavzularni ochiq, murakkab bo'lmagan holda o'tish uchun, sun'iy intellektni yordamchi safatida k . Videodarslar orqali murakkab mavzularni sodda va tushunarli tarzda izohlash, o'quvchilarning mustaqil o'rganishini qo'llab-quvvatlash hamda ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Sun'iy ntellekt inson tafakkuriga xos bo'lgan tahlil qilish, umumlashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Ta'lim sohasida ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini individuallashtirish, kontentni moslashtirish va ta'lim resurslarini avtomatik yaratishda keng qo'llanilmoqda.

Dolzarbligi

Hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning turli sohalarga, xususan ta'lim tizimiga keng joriy etilishi ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurati ortib borayotgan bir paytda, sun'iy intellekt o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtirish, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellektidan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, jumladan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilishi, mualliflik huquqi bilan bog'liq masalalar hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga ta'siri kabi jihatlar ushbu mavzuni chuqur ilmiy o'rganishni talab etadi. Shu sababli, sun'iy intellektning imkoniyatlari va uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rnini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb va muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

AI - Sun'iy intellekt - nima? AI - Artificial Intelligence - bu kompyuter yoki dasturga insondek o'ylash, o'rganish va qaror qilish qobiliyatini beradigan texnologiya. Oddiy qilib aytadigan bo'lsam. AI - bu "aqlli dastur". U qanday ishlaydi? Sun'iy intellekt juda ko'p ma'lumot orqali o'rganadi, ma'lumot yig'adi ya'ni kitob, internet va matnlardan. Shundan kelib chiqib qonuniyatlarni o'rganadi va undan keyin savollarga javob beradi yoki ish bajaradi. Masalan - ChatGPT - matnlar orqali o'rganadi va gaplashadi. AI qanday vazifalarni bajara oladi. Matnlar bilan ishlaydi, hikoya, kitob yozadi, tarjima qiladi, rasm chizadi, musiqa - qo'shiq yaratadi, video tayyorlaydi, maslahat bera oladi,

savollarga javob beradi. Sun'iy intellekt ta'lim jarayonida - dars qilishda, tibbiyotda - kasalliklarni aniqlashda, transport sohasida - avtomobillarda, ilovalarda esa - chatbotlarda ishlatilib kelinmoqda. Ta'lim jarayonida mana shunday innovatsion texnologiyalardan foydalanish natijasida dars jarayonini shaxsiylashtirish, individuallashtirish, har bir o'quvchi uchun eng samarali o'qitish strategiyasini tanlash imkoni kengayadi.

Ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish natijasida ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, ular asosida tahlil olib borish, o'quv jarayonini puxta rejalashtirish imkoniyati yaratilmoqda. O'quv dasturlarining zamon talablariga mos holda uzluksiz yangilanib borilishi, yangi metodikalar asosida ta'lim resurslarining yaratilishi sifatli va zamonaviy bilim olishga zamin yaratadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, ulardagi bilimlarni egallash tezligini muntazam nazorat qilish, individual nuqsonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali ishlar olib borish mumkin bo'ladi. Akademik faoliyat uchun zamonaviy texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlarini interaktiv va qiziqarli tarzda tashkil qilish o'quvchilar va talabalar ongida fanga qiziqishni oshiradi, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlarni o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirishda ilg'or texnologik vositalardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligi oshadi. O'zlashtirilgan bilimlarning chuqurligi va mustahkamligi ta'limning zamonaviy texnologiyalar yordamida tizimli ravishda bilimlarni egallash natijasida yuzaga chiqadi. Bu esa o'z navbatida bilimlarni hayotga tatbiq eta oladigan, o'z ustida ishlash qobiliyatiga ega zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot qismi

Yuqorida aytib o'tilganidek sun'iy intellektning imkoniyatlari bir qancha bo'lib uni hozirgi kunda deyarli barcha soxalarda uchratishimiz mumkin. So'ngi kunlarda uni zamonaviy texnologiya sifatida ko'rib, ta'lim jarayonini samarali olib borishda, talabalar (o'quvchilar) uchun dars mashg'ulotlarini qiziqarli o'tkazishda, mavzularni aniq va sodda tilda tushuntirib berishda, sifatli ta'lim berishda qo'llanilib kelinmoqda. Quyida esa sun'iy intellekt bajara oladigan vazifalar ketma-ketligi keltirilgan:

❖ Slayd va prezentatsiya tayyorlovchi sun'iy intellekt (AI) - bu bizga aynan nima uchun kerak, Gamma Tome, Beautiful.ai, Microsoft Copilot, bular nima qila oladi: matndan avtomatik slayd yaratadi, dizaynini o'zi qiladi, rasmlar va xar hil grafikalar qo'shadi.

❖ Matn va kitob yozuvchi sun'iy intellekt - bular yozuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ChatGPT, Claude, Sudowrite, Jasper AI, Writesonic Rytr ular hikoya, roman yozadi insho, referat tayyorlaydi, she'r yozadi, matnni tahrir qiladi.

❖ Musiqa va qo‘shiq yaratuvchi sun‘iy intellekt - Suno, AIVA, Udio AI va Soundraw, Boomy, qobiliyatlari shundan iboratki: qo‘shiq yaratadi, vokal qo‘shadi va fon uchun musiqa ishlab beradi.

❖ Rasm chizuvchi sun‘iy intellekt - DALL.E, Midjourney, Stable, Diffusion, Leonardo AI, bu sun‘iy intellektlar so‘zdan rasm yaratadi, illyustratsiya chizadi, kitob uchun rasmlar tayyorlay oladi.

❖ Video yaratadigan sun‘iy intellekt - Runway ML, Pika Labs, Synthesia, HeyGen. Imkoniyatlariga keladigan bo‘lsak matndan video yasaydi, AI odam (avatar) gapiradi, dars videolari tayyorlaydi.

❖ Ovoz va nutq uchun sun‘iy intellekt - ElevenLabs, Murf AI, Play.ht bu AI lar matnni ovozga aylantiradi, real odamga o‘xshab gapiradi va Audiokitob yaratadi.

❖ Universal sun‘iy intellekt yordamchilar - Google Gemini, Microsoft Copilot, Perplexity AI, vazifalari esa yuqoridagilarning barchasidan oz-oz, savollarga javob beradi, qidiruv natijalariga mos ma‘lumotlar va kod yozadi.

Tadqiqot xulosasi

Sun‘iy intellekt bu - inson aqlini taqlid qiladi, texnologiya o‘rganadi, tushunadi, javob beradi va ko‘plab sohalarda yordam beraoladi. Sun‘iy intellekt texnologiyalari hozirgi kunda inson faoliyatining turli sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlar matn va kitob yozish, qo‘shiq va musiqa yaratish, rasm va video tayyorlash hamda prezentatsiya va slaydlar ishlab chiqish kabi ko‘plab imkoniyatlarga ega. Natijada, sun‘iy intellekt ish jarayonlarini tezlashtiradi, ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Shu sababli, AI texnologiyalari zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyat kasb etib, kelajakda yanada keng rivojlanishi kutilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun‘iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, bilimlarni tez va qulay o‘zlashtirish hamda o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalardan oqilona va maqsadli foydalanish zarur bo‘lib, aks holda noto‘g‘ri ma‘lumotlar yoki fikrlash faolligining pasayishi kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Sun‘iy intellektdan to‘g‘ri foydalanish ta‘lim sifatini oshirishga va vaqtdan unumli foydalanishga xizmat qiladi.

Amaliy tavsiyalar

Nima bo‘lgan taqdirda ham tanganing ikkinchi tomoniniham ko‘ra bilish lozim. Sun‘iy intellektdan doimiy va tizimli ravishda foydalanish insonning psihikasi, ongi, tafakkuri, diqqati, idroki, xotirasi susayishiga, mustaqil va kreativ fikrlash darajasini pasayishiga olib keladi. Undan

to'g'ri yo'lda foydalaning, sizning ishingizni bajaruvchi vosita emas, balkim vaqtingizni tejash uchun xizmat qiluvchi aqilli yordamchiga aylantiring

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Karimov A., Raqamli ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik asoslari, Toshkent, O'qituvchi, 2022, 192 b.
- [2] Abdullayeva M., Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish metodikasi, Toshkent, Fan va texnologiya, 2023, 168 b.
- [3] Rasulov S., Elektron ta'lim resurslarini loyihalash va joriy etish, Toshkent, Innovatsiya nashriyoti, 2021, 154 b.
- [4] Yo'ldoshev J., Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Toshkent, Sharq, 2020, 176 b.
- [5] Xolmatova N., Masofaviy ta'lim va video darslar samaradorligi, Pedagogika jurnali, 2022, 4-son, 45–49-betlar.
- [6] Abduazizov, S. (2021). "Sun'iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati". Zamonaviy ta'lim, 5(7), 59
- [7] Russell S., Norvig P., Artificial Intelligence: A Modern Approach, Pearson Education, 2021, 1152 p.
- [8] Holmes W., Bialik M., Fadel C., Artificial Intelligence in Education, Center for Curriculum Redesign, Boston, 2019, 256 p.
- [9] Artikova Umida Kuzibayevna. Latin American Journal of Education. Lat. Am. J. Educ. 6, 1 (January, 2026).